

ECONOMIC FACTORS AFFECTING SOCIAL PROTECTION AND POVERTY LEVELS OF THE POPULATION



Samadkulov Muhammadjon

*Head of the Department of Economics and
Social Sciences, Yangiyer Branch of the Tashkent Institute of Chemical
Technology, PhD in Economics
Uzbekistan, Syrdarya Region*

E-mail: ravshanjonallanazarov@gmail.com

Allanazarov Ravshan

*Student of the Yangiyer branch of the
Tashkent Institute of Chemical Technology
Uzbekistan, Syrdarya Region*

E-mail: ravshanjonallanazarov@gmail.com

+99897-909-26-05

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОЦИАЛЬНУЮ ЗАЩИТУ И УРОВЕНЬ БЕДНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Самадкулов Мухаммаджон

Заведующий кафедрой экономики

*и социальных наук, Янгиюльский филиал Ташкентского института
химической технологии, кандидат экономических наук*

Узбекистан, Сырдарьинская область

Алланазаров Равшан

*Студент Янгиюльского филиала Ташкентского института химической
технологии*

Узбекистан, Сырдарьинская область

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda aholining ijtimoiy himoyasi tizimi va kambag‘allik darajasiga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda real daromadlar dinamikasi, ish bilan bandlik darajasi, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan transfer to‘lovlari, inflyatsiya darajasi va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning kambag‘allik darajasiga ko‘rsatayotgan bevosita va bilvosita ta’siri o‘rganilgan. Metodologik jihatdan statistik ma’lumotlar, so‘rovnama natijalari hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zaro solishtirma tahlil asosida baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasidagi davlat siyosati ijobjiy samara bermoqda, biroq inflyatsiya, yashirin ishsizlik va nomutanosib hududiy rivojlanish hali ham kambag‘allikni saqlab qoluvchi asosiy omillar sifatida saqlanib qolmoqda. Mualliflar tomonidan taklif etilgan chora-tadbirlar tizimli ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvga asoslangan bo‘lib, ular aholining ijtimoiy himoyasini yanada mustahkamlash va kambag‘allik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy maqola iqtisodiy siyosat shakllantirishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin.

Аннотация: В данной статье анализируются основные экономические факторы, влияющие на систему социальной защиты и бедность в Узбекистане. В исследовании изучается прямое и косвенное влияние динамики реальных доходов, уровня занятости, государственных трансфертных платежей, уровня инфляции и регионального экономического неравенства на бедность. Методологически статистические данные, результаты опросов и экономические показатели оценивались на основе сравнительного анализа. Результаты исследования показывают, что государственная политика по усилению социальной защиты населения оказывает положительное влияние, однако инфляция, скрытая безработица и неравномерность регионального развития по-прежнему остаются основными факторами, поддерживающими бедность. Предлагаемые авторами меры основаны на системном социально-экономическом подходе и служат дальнейшему усилению социальной защиты населения и постепенному снижению уровня бедности. Данная научная статья

может быть полезна как в теоретическом, так и в практическом плане при формировании экономической политики.

Abstract: This article analyzes the main economic factors affecting the social protection system and poverty in Uzbekistan. The study examines the direct and indirect impact of real income dynamics, employment rates, state transfer payments, inflation rates, and regional economic disparities on poverty. Methodologically, statistical data, survey results, and economic indicators were evaluated based on a comparative analysis. The results of the study show that state policy to strengthen social protection of the population is having a positive effect, but inflation, hidden unemployment, and uneven regional development still remain the main factors that maintain poverty. The measures proposed by the authors are based on a systematic socio-economic approach and serve to further strengthen social protection of the population and gradually reduce the poverty level. This scientific article can be useful both theoretically and practically in the formulation of economic policy.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik darajasi, ijtimoiy himoya tizimi, iqtisodiy omillar, real daromadlar, bandlik darajasi, yashirin ishsizlik, hududiy nomutanosiblik, inflatsiya bosimi, davlat transferlari, ijtimoiy nafaqalar, uy xo‘jaliklarining daromadi, minimal iste’mol savatchasi, iqtisodiy xavfsizlik.

Ключевые слова: уровень бедности, система социальной защиты, экономические факторы, реальные доходы населения, уровень занятости, скрытая безработица, территориальные диспропорции, инфляционное давление, государственные трансферты, социальные пособия, доходы домохозяйств, минимальная потребительская корзина, экономическая безопасность.

Keywords: poverty rate, social protection system, economic factors, real incomes, employment rate, hidden unemployment, territorial imbalances, inflationary pressure, state transfers, social benefits, household income, minimum consumer basket, economic security.

KIRISH



Zamonaviy iqtisodiyotni ijtimoiy barqarorlikdan ajratib bo‘lmaydi. Ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyasi va kambag‘allik darajasini kamaytirish har qanday rivojlanayotgan mamlakat uchun ustuvor vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda kambag‘allikka qarshi kurashishda tizimli yondashuvni shakllantirib, ijtimoiy himoya tizimini kengaytirishga katta e’tibor qaratmoqda. Biroq iqtisodiy omillar – ishsizlik, inflyatsiya, real daromadlar pasayishi va hududlararo iqtisodiy nomutanosiblik – ushbu sohadagi muammolarning chuqurlashuviga sabab bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, aholining yashash darajasiga ko‘rsatgan bevosita ta’siri va mavjud iqtisodiy sharoitlar bilan uzviy bog‘liqligini chuqur o‘rganish nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy yordam va davlat subsidiyalari kambag‘allikni qisqa muddatda yumshatishga xizmat qilsa-da, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va bandlik darajasining barqarorlashuvi asosiy hal qiluvchi omillardandir.

Shu bois, ushbu maqolada O‘zbekistondagi aholining ijtimoiy himoyasi tizimi va kambag‘allik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy omillar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot orqali real statistik ma’lumotlar asosida holat baholanadi, mavjud muammolar tahlil qilinadi va zarur ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqiladi.

ASOSIY QISM

Aholining ijtimoiy himoyasi tizimi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim nafaqat daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmini amalga oshiradi, balki iqtisodiy tengsizlikni yumshatishda, ijtimoiy adolatni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Xususan, “Yagona reyestr” axborot platformasining joriy etilishi yordamga muhtoj aholining aniq guruhlarini aniqlashda muhim qadam bo‘ldi.

Iqtisodiy omillar kambag‘allik darajasining shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Ishsizlik, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashuvi, inflyatsiya, hududlararo

daromadlar tafovuti va ijtimoiy xizmatlarning sifati aholining turmush darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, 2024-yil holatiga ko'ra, Stat.uz ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, ishsizlik darajasi 8,3 foizni tashkil qilgan bo'lib, bu qishloq joylarda ijtimoiy yordamga ehtiyojni kuchaytirgan.

Inflyatsiya darajasining o'sishi esa real daromadlar hajmining pasayishiga olib keladi. Bunday sharoitda aholining zaif qatlamlari eng ko'p zarar ko'radi, chunki ularning xarid qobiliyati cheklangan. Shu bois, davlat tomonidan kompensatsion yordam mexanizmlari — communal to'lovlar subsidiyalari, bolalar nafaqalari, pensiyalar indeksatsiyasi — amalga oshirilmoqda. Biroq, bu mexanizmlar vaqtincha yumshatuvchi chora bo'lib, barqaror kambag'allikni kamaytirish uchun iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi zarur.

Shuningdek, kambag'allikka qarshi kurashda bandlik siyosati alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda "Har bir oilaga bir tadbirkor" va "Yoshlar daftari" kabi dasturlar orqali aholining iqtisodiy faolligini oshirishga harakat qilinmoqda. Bu dasturlar ijtimoiy yordamni faqat moliyaviy ko'mak bilan cheklab qolmasdan, bandlik va daromad yaratish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy omillar – ishsizlik, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish darjasasi, ijtimoiy xizmatlar sifati – aholi turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholining ijtimoiy himoyasi tizimi esa bu omillarning salbiy ta'sirini yumshatishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy vosita sifatida qaraladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligini va kambag'allik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy iqtisodiy omillarni aniqlash uchun kombinatsiyalashgan yondashuv (mixed methods) qo'llanildi. Bunda statistik ma'lumotlar tahlili, komparativ baholash va kontent-tahlil metodlari uyg'unlashtirilgan.

Tadqiqot uchun asosiy ma'lumot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (Stat.uz), Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Jahon banki, BMT

Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan e’lon qilingan ochiq statistika, rasmiy hisobotlar va strategik hujjatlardan foydalanildi. 2020–2024 yillar oralig‘idagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – ishsizlik darajasi, inflyatsiya sur’atlari, aholi real daromadlari, ijtimoiy yordam qamrovi va byudjet xarajatlari – tahlil qilindi.

Empirik tahlil doirasida aholi guruhlari bo‘yicha ijtimoiy yordam taqsimoti, ularning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki va daromadlar strukturasidagi o‘zgarishlar solishtirildi. Shuningdek, iqtisodiy omillar bilan kambag‘allik darajasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik aniqlashga harakat qilindi.

Kambag‘allik ko‘rsatkichlari baholanishida xalqaro tan olingan indikatorlar – Gini koeffitsienti, eng past daromadli 40% aholi ulushi, subsistensiya darajasi – hisobga olindi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda joriy etilgan “Yagona ijtimoiy reyestr” ma’lumotlar bazasidan foydalanilgan holda, aholining ijtimoiy yordam oluvchilar guruhlaridagi dinamik o‘zgarishlar taxlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuv orqali ijtimoiy himoya tizimi va iqtisodiy omillar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqliklarni chuqr o‘rganish va kambag‘allikka qarshi kurashda yanada samarali strategiyalar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan tahliliy asos yaratildi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan empirik va statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasiga ta’sir qiluvchi asosiy iqtisodiy omillar – aholi daromadlarining yetarli emasligi, ish o‘rinlarining sifatsizligi, narxlar o‘sishi (inflyatsiya), ijtimoiy yordam mexanizmlarining qamrov darajasi va samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. 2020–2024 yillar oralig‘ida bu omillarni o‘rganish orqali muhim xulosalarga kelindi.

Birinchidan, rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yilda pandemiya ta’sirida O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 17% atrofida bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilga

kelib 14% gacha pasaygan bo‘lsa-da, 2023–2024 yillarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari barqaror bo‘lishiga qaramay, ijtimoiy tengsizlik va narxlar o‘sishi hisobiga pasayish sur’atlari sustlashgan. Inflyatsiyaning 2023-yilda 8,77% darajada bo‘lishi, real daromadlar oshish sur’atini yengib o‘tgan.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoya tizimining qamrovi kengaymoqda. “Yagona ijtimoiy reyestr” tizimi orqali ehtiyojmand aholini aniqlash samaradorligi oshgan. 2022-yilda ushbu reyestr orqali 1,7 milliondan ortiq fuqarolarga manzilli moddiy yordam ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2024-yil boshiga kelib bu ko‘rsatkich 2,4 million kishiga yetdi. Bu esa aholining eng zaif qatlamlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish imkonini oshirgan.

Uchinchidan, byudjet xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi yildan-yilga oshmoqda. Masalan, 2021-yilda ijtimoiy himoya tizimiga ajratilgan mablag‘lar YAIMning 4,1% ini tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 5,2% gacha yetgan. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish dasturlari orqali aholini iqtisodiy faoliyatga jalb qilish orqali kambag‘allikni kamaytirishga erishilmoqda.

To‘rtinchidan, iqtisodiy o‘sishning hududlar kesimidagi nomutanosibligi hali ham muhim muammo bo‘lib qolmoqda. Respublikaning ayrim viloyatlarida (masalan, Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Jizzax) kambag‘allik darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqori. Bu esa hududlararo iqtisodiy imkoniyatlar va infratuzilma tengsizligi bilan bog‘liq.

Hududlar kesimida ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish maqsadida infratuzilma va xizmatlar rivojlantirildi. Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida “mahallabay” ijtimoiy yordam tizimi keng joriy etildi. Bu esa hududiy kambag‘allik tafovutlarini yumshatdi.

Inflyatsiyaning sekinlashuvi, fiskal barqarorlik va valyuta siyosatidagi izchillik aholi xarid qobiliyatini nisbatan barqaror saqlab qolishga imkon berdi. 2023-yilda 8,77% inflyatsiya fonida asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi narxlar keskin o‘sishining oldini oldi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat kambag'allik darajasini izchil pasaytirish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, ijtimoiy nafaqalar, real daromadlar o'sishi, mehnat bozoridagi tiklanish va davlat budjeti orqali moliyalashtirilgan ijtimoiy dasturlar – bularning barchasi kompleks ta'sir orqali iqtisodiy beqarorlik xavfini kamaytirmoqda. Biroq, hali ham tizimli islohotlarga ehtiyoj mavjud: xususan, norasmiy bandlikni rasmiylashtirish, soliq imtiyozlarini ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirish va raqamli ijtimoiy yordam tizimlarini takomillashtirish zarur. Shunda, uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi.

1-jadval

Aholining ijtimoiy himoyasi va kambag'allik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2020–2024)¹

Yil	Kambag' allik darajasi (%)	Inflyat siya (%)	Ijtim oiy	YAIM dagi yordam ijtimoiy olvuchilar himoya soni (mln)	Izoh ulushi (%)
20 20	17,0	11,1	1,2	3,9	Pande miya davrida

¹ Aholining ijtimoiy himoyasi va kambag'allik darajasining 2020–2024-yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari.
(Manba: stat.uz, 2024)

					iqtisodiy bosim kuchaydi
20 21	15,2	10,0	1,5	4,1	Ijtimoi y yordam mexanizmla ri kengaydi
20 22	14,0	12,3	1,7	4,5	Yagona ijtimoiy reyestr ishga tushirildi
20 23	13,5	8,77	2,1	4,8	Manzill i yordam dasturlari kuchaydi
20 24	12,8	9,8	2,4	5,2	Ijtimoi y sohalarga ajratmalar oshdi

Jadvalda aks ettirilgan ma'lumotlar O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat natijasida aholining ijtimoiy himoyasi va kambag'allik darajasidagi o'zgarishlarni aniq ko'rsatadi. 2020-yilda pandemiya ta'siri bilan kambag'allik darjasasi 17% dan yuqori bo'lган. Bu davrda ishsizlik darjasasi ham 11,1% gacha ko'tarilib, davlat tomonidan nafaqalar va moddiy yordamlar hajmi oshirilgan. 2021-yilda mehnat bozorida tiklanish kuzatilib, ishsizlik darjasasi 10,5% ga tushgan. Shuningdek, bandlik dasturlari orqali 1,6 million fuqaro ish bilan ta'minlangan.

2022-yilda “Yashil makon”, “Temir daftар” va boshqa ijtimoiy loyihalar orqali kambag‘allik 15,3% ga tushdi. Shu bilan birga, ijtimoiy transferlar hajmi sezilarli oshib, ijtimoiy yordamdan foydalanuvchilar soni 2 milliondan oshdi. 2023–2024-yillarda kambag‘allik darajasi yanada pasayib, 13,5% atrofida barqarorlashdi. Davlat tomonidan subsidiyalar va ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish dasturlari orqali iqtisodiy faollik rag‘batlantirildi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy himoya tizimi faqat moddiy yordam bilan cheklanmay, aholini mehnat bozoriga qayta integratsiyalash, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, va kasbiy tayyorgarlik orqali kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu yondashuv tizimli va innovatsion xarakterga ega bo‘lib, makroiqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, jadval asosida ijtimoiy siyosatning natijadorligi va uni iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali baholash imkoniyati yuksalganini kuzatish mumkin.

XULOSA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi misolida aholining ijtimoiy himoyasi darajasi va kambag‘allik ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi iqtisodiy omillar chuqur tahlil qilindi. So‘nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida ijtimoiy yordam mexanizmlarining takomillashuvi, mehnat bozorining faollandashuvi, kasbga qayta tayyorlash va oilaviy tadbirkorlik dasturlarining kengayishi kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Statistik ma’lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, kambag‘allik darajasi 2020-yildagi pandemiyadan so‘ng izchil pasayib, 2024-yilda 13,5% atrofida barqarorlashdi. Bu jarayonda iqtisodiy o‘sish, aholining bandlik darajasi va davlat tomonidan ajratilayotgan ijtimoiy transferlar muhim rol o‘ynadi.

Shuningdek, ijtimoiy himoya faqat nafaqalar va moddiy yordamlar bilan cheklanmay, aholini iqtisodiy faol subyektga aylantirishga qaratilgan strategik yondashuvga asoslangani kuzatilmoqda. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy tenglikni ta’minlash uchun kompleks siyosiy yondashuv muhim

ahamiyatga ega. Shunday qilib, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). *Aholining daromadlari va iste’mol darajasi*. www.stat.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ–5044-son, 2021-yil 26-mart. *Aholini kambag‘allidan chiqarish va bandlikni ta’minalash strategiyasi*.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). *Ijtimoiy budjet va yordam dasturlari bo‘yicha hisobotlar*.
4. Qodirov A. (2022). *Ijtimoiy himoya siyosatining transformatsiyasi va zamonaviy tamoyillari*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
5. Boshqaruв akademiyasi nashri (2021). *Kambag‘allik va ijtimoiy tenglik masalalari*.
6. Jahon banki. (2023). *Uzbekistan: Poverty Reduction and Social Safety Net Report*.
7. International Monetary Fund (IMF). (2022). *Republic of Uzbekistan: Selected Issues*.
8. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). *Socio-Economic Impact of COVID-19 in Uzbekistan*.
9. G‘ulomov S. va boshq. (2023). *Ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish muvozanati*. – Toshkent: Innovatsion iqtisodiyot markazi.
10. Karimova D. (2021). “Ijtimoiy siyosat va aholi farovonligi: zamonaviy qarashlar”. *Iqtisodiyot va ta’lim* jurnali, №2.
11. Qodirova M. (2023). “O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish bosqichlari”. *Iqtisodiy tadqiqotlar* jurnali, №1.

12. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2024). *Rasmiy hisobotlar va tahlillar.*
13. Asian Development Bank. (2023). *Country Partnership Strategy: Uzbekistan.*
14. Islomov N. (2022). “Kambag‘allik muammosi va uni bartaraf etish yo‘llari”. *Moliyaviy va iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, №3.
15. The World Bank Group. (2024). *Uzbekistan Economic Update: Resilience and Reform.*